XIII. O‘RTACHA OYLIK NOMINAL HISOBLANGAN ISH HAQI

O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi[1)] 2023 yil mart oyida 3 748,1 ming so‘mni tashkil etib, 2022 yilning mos davriga nisbatan 32,4 foizga o‘sdi.

Yanvar – mart oylarida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining o‘tgan yilning mos davriga nisbatan eng yuqori o‘sishi iqtisodiy faoliyat turlarining axborot va aloqa sohasida (2,7 marta ko‘p), savdo sohasida (2,0 marta ko‘p), bank, sug‘urta, lizing, kredit va vositachilik sohasida (162,6 foizga), kuzatildi.

O‘rtacha ish haqining yuqori miqdori iqtisodiy faoliyat turlarining bank, sug‘urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyatida 8 497,8 ming so‘m (viloyat bo‘yicha o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan 2,0 marta ko‘p), axborot va aloqa sohasida 6 654,0 ming so‘m (190,8 foizga), tashish va saqlashda 6114,8 ming so‘m (175,4 foizga), savdo sohasida 4 197,3 ming so‘m (120,4 foizga) kuzatildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi
(2023 yil yanvar-mart)



[1)] *Bu yerda va keyingi o'rinlarda dastlabki ma'lumotlar, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlarisiz, qayta hisoblangan.*

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi
(qishloq xo’jalikligi va kichik tadbirkorlik sub’ektlaridan tashqari)

(ming so‘m)

	Yanvar-mart		*Viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan, foiz*	
	2022 yil	*2023 yil*	*2022 yil*	*2023 yil*
Jami viloyat bo‘yicha	**2 610,8**	**3 487,1**	**x**	**x**
shu jumladan:				
Sanoat	3 166,3	4 039,3	121,3	115,8
Qurilish	3 036,1	4 005,3	116,3	114,9
Savdo	2 064,6	4 197,3	79,1	120,4
Tashish va saqlash	4 120,4	6 114,8	157,8	175,4
Axborot va aloqa	2 420,8	6 654,0	92,7	190,8
Bank, sug‘urta, lizing, kredit va vositachilik	5 227,0	8 497,8	200,2	243,7
Ta’lim	2 140,8	2 675,7	82,0	76,7
Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy hizmatlar ko‘rsatish	2 198,7	2 862,1	84,2	82,1
Boshqa faoliyat turlari	2 447,7	3 839,1	93,8	110,1

Ta’lim sohasida ishlovchilarga hisoblangan o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2 675,7 ming so‘mni tashkil etib, 2022 yilning mos davriga nisbatan 125,0 foizga o‘sdi.

Ta’lim sohasidagi o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko‘rsatkichini Viloyat hududlari bo‘yicha ko‘radigan bo‘lsak, ya’ni o‘rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori, Buxoro shahrida 3 809,8 ming so‘mni viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan (142,4 foiz), Qorovulbozor tumanida 3 098,4 ming so‘mni (115,8 foiz) va Kogon shahrida 2 622,6 ming so‘mni (98,0 foiz) tashkil etgan bo‘lsa, Shofirkon tumanida 2 202,6 ming so‘mni (82,3 foiz), Peshko‘ tumanida 2127,7 ming so‘mni (79,5 foiz) Vobkent tumanida 2 035,2 ming so‘mni (76,1 foiz), tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo‘lmoqda.

Sanoat sohasida ishlovchilarga hisoblangan o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 4 039,3 ming so‘mni tashkil etib, 2022 yilning mos davriga nisbatan 127,6 foizga ko‘paydi.

Sanoat sohasidagi o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko‘rsatkichini viloyat hududlari bo‘yicha ko‘radigan bo‘lsak, ya’ni o‘rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Qorovulbozor tumanida 6 764,5 ming so‘mni (viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan 167,5 foiz), Shofirkon tumanida 5 531,6 ming so‘mni (136,9 foiz) tashkil etgan bo‘lsa, Buxoro tumanida 1 997,3 ming so‘mni (49,4 foiz) va Vobkent tumanida 1 734,1 ming so‘mni (42,9 foiz) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo‘lmoqda.

Qurilish sohasida ishlovchilarga hisoblangan o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 4 005,3 ming so‘mni, 2022 yilning mos davriga nisbatan 131,9 foizni tashkil etdi.

Ushbu sohadagi o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko‘rsatkichini viloyat hududlari bo‘yicha ko‘radigan bo‘lsak, ya’ni o‘rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Kogon shahrida 5 793,1 ming so‘mni (viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan 144,6 foiz) bo‘lsa, Olot tumani 5 489,6 ming so‘mni (137,1 foiz) tashkil etgan bo‘lsa, Qorako‘l tumanida 2 136,5 ming so‘mni (53,3 foiz), Shofirkon tumanida 2 091,9 ming so‘mni (52,2 foiz) boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo‘lmoqda.

Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida ishlovchilarga hisoblangan o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2 862,1 ming so‘mni tashkil etib, 2022 yilning mos davriga nisbatan 130,2 foizni tashkil etdi.

Mazkur sohalardagi o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko‘rsatkichini viloyat hududlari bo‘yicha ko‘radigan bo‘lsak, ya’ni o‘rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Peshko‘tumanida 3 525,7 ming so‘mni (viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan 123,2 foiz), Kogon shahrida 3 135,1 ming so‘mni (109,5 foiz), Qorovulbozor tumanida 3 059,2 ming so‘mni (106,9 foiz) tashkil etgan bo‘lsa, Qorako‘l tumanida 2 390,8 ming so‘mni (83,5 foiz), Buxoro tumanida 2 386,4 ming so‘mni (83,4 foiz), Vobkent tumanida 2 342,8 ming so‘mni (81,9 foiz) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo‘lmoqda.

Bank, sug‘urta, lizing, kredit va vositachilik sohasida ishlovchilarga hisoblangan o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 8 497,8 ming so‘mni tashkil etib, 2022 yilning mos davriga nisbatan 162,6 foizga o‘sdi.

O‘rtacha oylik ish haqi ko‘rsatkichini viloyat hududlari bo‘yicha ko‘radigan bo‘lsak, eng yuqori miqdori Kogon shahrida 5 315,2 ming so‘mni viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan (152,4 foiz), Qorovulbozor tumanida 5 270,6 ming so‘mni (151,1 foiz), Buxoro shahrida 4 076,6 ming so‘mni (116,9 foiz) etgan bo‘lsa, Shofirkon tumanida 2 582,5 ming so‘mni (74,1 foiz), Buxoro tumanida 2 529,7 ming so‘mni (72,5 foiz), Vobkent tumanida 2 349,2 ming so‘mni (67,4 foiz) tashkil etib boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo‘lmoqda.

O‘rtacha oylik ish haqining eng past ko‘rsatkichlari Buxoro (2 529,7 ming so‘m) va Vobkent (2 349,2 ming so‘m) tumanlarida kuzatildi. Bu tumanlarda o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko‘rsatkichlari viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan mos ravishda kam bo‘lgan.

Buxoro viloyati bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(qishloq xo’jalikligi va kichik tadbirkorlik sub’ektlaridan tashqari)

(ming so‘m)

	Yanvar- mart		*Viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan, foiz*	
	2022 yil	*2023 yil*	*2022 yil*	*2023 yil*
Buxoro viloyati	**2 610,8**	**3 487,1**	**x**	**x**
Buxoro sh.	2 792,0	4 076,6	106,9	116,9
Kogon sh.	3 857,1	5 315,2	147,7	152,4
tumanlar				
Buxoro	2 379,4	2 529,7	91,1	72,5
Vobkent	1 778,3	2 349,2	68,1	67,4
Jondor	2 205,4	2 680,5	84,5	76,9
Kogon	2 412,5	2 704,4	92,4	77,6
Olot	2 147,1	2 903,3	82,2	83,3
Peshko‘	1 934,3	2 684,5	74,1	77,0
Romitan	2 410,1	2 964,1	92,3	85,0
Shofirkon	2 069,3	2 582,5	79,3	74,1
Qorako‘l	1 903,5	2 592,0	72,9	74,3
Qorovulbozor	3 900,1	5 270,6	149,4	151,1
G‘ijduvon	2 110,1	2 609,1	80,8	74,8

Statistik ko‘rsatkichlarga izohlar

Nominal hisoblangan ish haqi – ma’lum bir davr (soat, oy, yil) mobaynida xodim tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot (bajarilgan ish yoki ko‘rsatilgan xizmat) evaziga ish beruvchilar tomonidan, amaldagi qonun hujjatlariga asoslangan holda soliq va boshqa to‘lovlarni o‘z ichiga oluvchi yollanma xodimning mehnatiga haq to‘lash tarzida jismoniy shaxsga pul shaklida hisoblangan daromadlardan iborat.

O‘rtacha ish haqini hisoblash uchun qabul qilinadigan xodimlar soni – homiladorlik va tug‘ish bo‘yicha ta’tilda bo‘lgan, bevosita tug‘uruqxonaning o‘zidan yangi tug‘ilgan chaqaloqni farzandlikka olish munosabati bilan ta’tilda bo‘lgan, hamda bolani uning qonun hujjatlariga muvofiq ma’lum bir yoshga to‘lguniga qadar parvarish qilish bo‘yicha ta’tilda bo‘lgan ayollar; ta’lim muassasalarida o‘qiyotgan va ish haqi saqlanmagan holda qo‘shimcha mehnat ta’tilida bo‘lganlar, shuningdek, ta’lim muassasalariga kirish imtihonlarini topshirish uchun ish haqi saqlanmagan holda ta’tilda bo‘lgan xodimlarlarni inobatga olmagan holda, mehnat daftarchalari mavjud bo‘lgan va ish haqi hisoblangan xodimlarning o‘rtacha sonini ifodalaydi.

Ish vaqti- korxona yoki muassasada muayyan ishni bajarish uchun qonuniy berilgan muddat ish kuni va ish haftasi bilan belgilanadi. Ish vaqti davomida ishlanmagan vaqt (nima sababdan sodir bo‘lgani dan qat’iy nazar) bekor turish vaqti deyiladi.

Ish haqi- joriy davrda ish beruvchi tomonidan yollangan xodimga bajargan ishlari uchun berilgan pul yoki natura usulidagi to‘lovlar bo‘lib, ular hisoblangan summalar yig‘indisidan tashkil topadi va ikki qismga bo‘linadi: ish haqi va ijtimoiy sug‘urtaga ajratmalar.

Ish haqiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar- Bozor iqtisodiyoti sharoitida ish haqi hajmiga bir qator bozor omillari va bozordan tashqari omillar ta’sir ko‘rsatadi, buning natijasida mehnatga haq to‘lashning muayyan darajasi vujudga keladi. Bular tovarlar va xizmatlar bozorida talab va taklif o‘zgarishlari, mehnatga bo‘lgan talab, narxining o‘zgaruvchanligi, iste’mol tovarlari va xizmatlar narxi o‘zgarishi va boshqalar kiradi.